

**O‘.HOSHIMOV “JINNI BO’LISH OSON EKAN” HIKOYASIDA
MAVHUM OTLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(INGLIZ TILI BILAN QIYOSIY)**

*Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi*

Annatatsiya: Ushbu maqolada O’tkir Hoshimovning “Jinni bo’lish oson ekan” hikoyasidagi mavhum otlarning lingvokulturologik xususiyatlari ingliz tili bilan qiyosiy tarzda tahlilga tortilgan.

Kalit so’zlar: lingvomadaniyat, milliy xarakter, mavhum otlar, tarjima, sinonimik qator.

Annotation: In this article, the linguistic and cultural characteristics of abstract nouns in O’tkir Hashimov's story "It's easy to be crazy" are analyzed in a comparative way with the English language.

Key words: linguistic culture, national character, abstract nouns, translation, synonym series.

Аннотация: В данной статье лингвокультурные особенности абстрактных существительных в рассказе Откира Гашимова «Легко сойти с ума» анализируются в сравнительном ключе с английским языком.

Ключевые слова: лингвокультура, национальный характер, абстрактные существительные, перевод, синонимический ряд.

Har bir tilda yozilayotgan asar o’sha tilning xususiyatlari, madaniyati va urfodatlariga tayangan holda hosil bo’lgan leksik qatlami asosida yaratiladi. Har qanday asarga xalq madaniyatining aksi singdirilgan bo’ladi. Xalqning madaniyati esa tildagi so’zlar, ularning turli ma’no nozikliklari va hatto uning grammatikasida ham namoyon bo’ladi. Bu esa bevosita lingvomadaniyatshunosik bilan bog’liq.

O’tkir Hoshimov hikoyalarida mavhum otlarning keng qo’llanilishi va ulardagi ayrim ma’no qirralarining boshqa tillarda qanday ifodalanishi, ushu ma’nolarning ularda ham mavjud yoki mavjud emasligi o’zbek tilining muhim lingvokulturologik xususiyatlaridan biridir. Xususan, ingliz tili bilan qiyoslaydigan bo’lsak, har ikkala tilning ham o’ziga xos jihatlari namoyon bo’ladi.

Quyida O‘.Hoshimovning “Jinni bo’lish oson ekan” hikoyasidagi mavhum otlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ingliz tili bilan qiyoslagan holda tahlilga tortamiz.

Sen-ku, savob bo’lar deb to’xtaysan, DAN hodimi ko’rib qolsa, kirakashlik qilyapsan, deb taloningni teshib beradi¹.

¹ O’. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: “O’qituvchi” NMIU, 2017. –B.9.

O'zbek tilida keng qo'llaniluvchi savob so'zi ingliz tilida yaxshilik mavhum oti bilan bir xil, ya'ni good deed deb tarjima qilinadi. Ammo o'zbek tilida bu so'zlarning ma'no qirralarida tafovut mavjud. Savob so'zi yaxshilik so'zidan farqli o'laroq, diniy atama sifatida qaraladi.

Savob – diniy e'tiqotga ko'ra Xudoning marhamatiga loyiq ish va shunday ish uchun Xudoning marhamati. Nima ish qildim? Gunohmi, savobmi? (Oybek "Tanlangan asarlar" [Yormat]). <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/savob>

Yaxshilik so'zi esa kengroq ma'noga ega bo'lib, beminnat qilingan har qanday oddiy yordamga nisbatan ham qo'llanila oladi. I do a good deed every day (Men har kuni bitta savob ish qilaman) gapida good deed diniy jihatdan yaxshi amalni bildirsa, For once in my life I'm doing a good deed... And It is useful (Men hayotimda birinchi marta yaxshilik qilyapman va u foydali) gapida good deed o'zbek tiliga yordam, yaxshilik deb tarjima qilinadi.

Bir o'limdan qolganingga shukur qilmaysanmi, xumpar?²

Shuningdek , shukur so'zining ham lingvomadaniyatimizga xosligi ingliz tilida bildiradigan ma'nosidan va qanday tarjima qilinishidan ko'rinish turadi.

Bu mavhum ot ingliz tilida minnatdorchilik, rozilik, tashakkur, raxmat, mammuniyat so'zlarining barchasi bilan gratitude so'zi orqali ifodalanadi. <https://islom.ziyouz.com/fatvo/turli-masalalar/shukr-nima-uning-ma-nosi-va-ado-etalishi-qanday-bo-ladi> . Ammo o'zbek tilida yaxshilik qiluvchining yaxshiligini mammunlik ila e'tirof etishni ulamolar shukur deyishgan. Toatlarni davomli ado etish va gunohlardan saqlanish amaliy shukurdir. Bundan ma'lumki, o'zbek tili leksikasida yuqoridagi sinonimik qatordagi har bir so'zning o'zgacha va farqli ma'no nozikliklari mavjud bo'lib, ular orasida shukur so'zi ko'pincha islom diniga xos atama hisoblanadi.

He smiled at them with gratitude (U ularga mammuniyat bilan jilmaydi) gapida hamda Muslims must say gratitude for their every breath (Musulmonlar har nafaslari uchun shukur aytishlari kerak) gapida qo'llangan gratitude so'zi ingliz tilida bir xil so'z bilan ifodalanayotgan bo'lsa-da, o'zbek tilida mutlaqo boshqa ma'nolarni anglatmoqda.

Uyga telefon qilsam, xotinboydan baloga qolaman³.

Tilimizda ma'noviy sinonimlar hisoblangan so'zlarning har birida alohida ma'nolar mavjud bo'ladi. Masalan, muammo, baxtsizlik, musibat, omadsizlik, balo, kulfat so'zlarining har birida alohida ma'no qirralari bor. Lekin ingliz tilida ularning barchasi bir so'z bilan ifodalash mumkin. Bu so'zlar ingliz tiliga misfortune deb tarjima qilinadi. <https://uz.opentrans.net/ingliz-ozbek-tarjima/misfortune.html>

Balo va baxtsizlik so'zlari orasidagi tafovut quyidagi gaplarda ma'lum bo'ladi. We had the misfortune to run into a violent storm (Bizda kuchli bo'ronga uchrab qolish

² O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2017. –B. 12.

³ O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2017. –B. 12.

baxtsizligi bor) gapidagi misfortune so'ziga qaraganda He was a big misfortune for strange mother (U o'gay onasi uchun katta balo edi) gapidagi misfortune so'zi kuchli ma'no ifodalamoqda va mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi. Ularning bittasi o'rnida ikkinchisi qo'llansa, ko'zlangan ma'noni bera olmaydi.

Balo- sinov, ofat, musibat ma'nolarini bildirib, biror voqeа-hodisa, harakat tufayli yuzaga keladigan falokat, tashvish. Taqdirning balosi ko'p , saqlansa panasi ko'p . Sadaqa baloni yer, tovba – gunohni. (Xalq maqollaridan). <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/balo>

Baxtsizlik - baxti kulmaganlik, baxtga erishmaganlik; omadsizlik.

◆ Baxt bilan baxtsizlik yetaklashib yurarkan-da doim. O'. Hoshimov, Qalbingga qulq sol. Anvarning bu holati balki oila baxtsiz-ligidan, ota-onas bag'rida yayramaganligidan tug'ilgandir desak, uning ikki og'asi bunday emas edshshr. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. Sevuvchilar vasl oqshomida baxt sharobini ichishsa, bular baxtsizlik og'usini ichmoqda edilar. M. Ismoiliy, Farg'ona t.o

.◆ U bo'y-basti cho'zilib, turmush qurdi-yu, boshiga baxtsizlik yog'di. H. Shams, Dushman. <https://uz.wiktionary.org/wiki/baxtsizlik#Ma%CA%BCnosi>

Do'stimga ahvolni tushuntirdim⁴.

"Jinni bo'lisl oson ekan" hikoyasidagi yana bir mavhum ot ahvol so'zining bir necha ma'nolari mavjud bo'lib, ular ingliz tilida ham ma'nosiga mos muqobiliga ega. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Vaziyat, holat ma'nosi - condition: The car is in very good condition (bu mashina juda yaxshi ahvolda);

2. Vaziyat, sharoit ma'nosi – situation: Her news put me in a difficult situation (Uning yangiliklari meni qiyin vaziyatga qo'ydi);

3. Holat ma'nosi – state: Water exists in three states: liquid, gaseous, and solid (Suv uch xil holatda mavjud bo'ladi: suyuqlik, gaz va qattiq jism);

4. Sog'lik, tibbiy holat ma'nosi – condition: He suffers from a serious heart condition (U jiddiy yurak tibbiy holatidan aziyat chekadi);

5. Hamma narsa, har narsa, hammasi – everything: You look upset – is everything all right? (Sen g'amgin ko'rinding, hammasi yaxshimi?) gapida hammasi va ahvol so'zleri sinonim va ularni almastirib qo'llash mumkin.

6. Kayfiyat, shasht ma'nosi – mood: He was in no mood for being polite to visitors (U tashrif buyuruvchilarga muloyim bo'ladigan ahvolda, kayfiyatda, emas edi); <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/ahvol>

Yuqoridagi gaplarda ahvol so'zi anglatadigan turlicha ma'nolarining har biri alohida so'zlar orqali ingliz tiliga tarjima qilinishini ko'rib chiqdik. Deyarli, ularning har biri millatning milliy xarakterini ko'rsatuvchi mavhum otlardir.

⁴ O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2017. –B. 12.

O'zbek tilidagi kuch, quvvat so'zlarining sinonimi hisoblangan mador so'zi ingliz tiliga energy, strength, vigour deb tarjima qilinadi. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/energy.html> Ammo bu ma'noda ko'pincha energy so'zi qo'llanadi. Chunki vigour ko'proq g'ayrat ma'nosi ustunligiga ega. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/mador>

They set about their work with youthful vigour and enthusiasm (Ular o'z ishlarini yoshlarga xos g'ayrat va ishtiyoy bilan boshlashdi) gapida vigour so'zi mador deb tarjima qiinmaydi, balki g'ayrat bu gapga mos.

Tilimizdag'i har bir so'z o'zining o'zgacha ma'no qirralarini namoyon qilishi bilan ajralib turadi va lingvomadaniyatimizni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'. Hoshimov. Hajviy hikoyalar. –Toshkent: “O'qituvchi” NMIU, 2017.
2. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/savob>
3. <https://islom.ziyouz.com/fatvo/turli-masalalar/shukr-nima-uning-ma-nosi-va-ado-tilishi-qanday-bo-ladi>
4. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/misfortune.html>
5. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/balo>
6. <https://uz.wiktionary.org/wiki/baxtsizlik#Ma%CA%BCnosi>
7. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/ahvol>
8. <https://uz.opentran.net/ingliz-ozbek-tarjima/energy.html>
9. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/mador>
10. Wisdom inglizcha-o'zbekcha so'zlar ilovasi.